



IMOM AL-BUXORIY MUHADDIS OLIM

Shavqatulloev Do`stmuhammad¹

Ergashev Odilbek²

¹ Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
e-mail:ma6069054@gmail.com,

² Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6321236>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:17-fevral 2022

Ma'qullandi:22-fevral 2022

Chop etildi:27-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

"Bardazbeh", Ahnaf,
Nishopur, Xuroson, Marv,
Balx, Hirot, Nishopur, Ray,
Al-jome as-sahih",)
"Tazkirat ul-Hufoz",
Xartang

ANNOTATSIYA

Imom al-Buxoriyning muhaddislik sohasidagi samarali ijodiga oilasidagi muhit katta ta'sir o'tkazgan desak xato bo'lmaydi. Yoshligidan boshlab hadis ilmiga qiziqishi uning kelajakda musulmonlarning muqaddas yeri hisoblangan Makka shahriga borishga va u yerdan Madinaga o'tib mashhur muhaddislardan hadis ilmini o'rganishga undaydi. Allomaning hayotida muhim voqealardan biri bu zamonasining mashhur muhaddisi at-Termiziyni Nishopurda o'chratgani bo'lgan va har ikki alloma ham bir-biridan ko'p narsani o'rgangan. Usha davrda Nishopur Sharq musulmon olaminig yirik ilmiy markazlaridan biri bo'lgan va ko'plam allomalar shu yerda faoliyat yurutgan. "Al-jome as-sahih" asari hozirgi kungacha Qur'ondan keying muhim manba hisoblangan va al-Buxoriy undagi hadislarni qatiyat bilan saralab olgan.

Imom al-Buxoriyning ismi Muhammad, kunyasi Abu Abdulloh, laqabi ba'zan imom al-muhaddisiyn (muhaddislarning imomi, peshvosi), ba'zan amir ul-mu'miniyn fil-hadis (hadis ilmining amiri, sultoni) va nasabi Muhammad ibn Ibrohiym ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbah ibn Bazazbehdir. So'nggi ikki ismi ibn Bardazbeh ibn Bazazbeh)dan ko'rinib turibdiki, imom al-Buxoriyning asl nasabi ajamlarga borib taqaladi. Bu fikr talay adabiyotlarda qayd qilingan bo'lib, ko'pchilik muhaddislarning ta'kidlashlaricha, "Bardazbeh" so'zi arabcha "zori" (ziroat, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi kishi)

ma'nosini bildiradi. Mashhur olim imom as-Subkiy o'zining "Tabaqot ash-shofi'iyya al-kubro" ("Shofe'iy ulug' tabaqalar") nomli yirik asarida Bardazbehning otasini Bazazbeh deb ko'rsatgan.Imom al-Buxoriy haqida yozgan ko'pchilik olimlar esa uning nasabini faqat Bardazbehga bog'lab tugatganlar. Afsuski tarixchilar Bardazbeh, uning otasi Bazazbeh haqlarida deyarli hech qanaqa ma'lumot keltirmaganlar. Ba'zi olimlarning xabarlariga ko'ra ular ikkovlarining kelib chiqishi ajamdan bo'lib, ularning dinlariga e'tiqod qilganlar. Imom al-Buxoriy otasining bobosi al-Mug'iyra Buxoro hokimi Yaman alJuafiydan islom dinini



qabul qilgan bo'lib, Buxoroni vatan tutib yashab qolgan. O'sha paytdagi taomulga ko'ra, agar biron kishi islom dinini kimdan qabul qilsa, o'sha kishining qabilasiga mansub hisoblangan. Bu odat qabul qilingan dinga sodiqlikning belgisi bo'lib, arabcha nisbat ul-vilo' fil-islom (islom diniga sodiqlik nisbati) deb atalishi odat tusiga kirgan edi. Albatta al-Mug'iyra ham o'sha davrda ommaviy tus olgan ushbu urfdan holi bo'lmaganligidan uning o'zi ham, undan keyingi tug'ilgan avlodlari ham, shu jumladan imom al-Buxoriy ham Ju'afiy deb atala boshladilar. Imom al-Buxoriyning nasli-nasabi haqida tarixchilar keltirgan ma'lumotlardan yana shuni qayd qilish kerakki, uning bobosi Bardazbehning ismini ba'zilar aslida al-Ahnaf deb keltirganlar. Ahnaf deb odatda eng aqlli, dono kishilarga nisbat berilgan, go'yoki saxiy, qo'li ochiq kishilar "Hotamtoy" deb aytilgani singari. Bundan ko'rinib turibdiki, imom al-Buxoriyning bobosining haqiqiy ismi Bardazbeh bo'lsa-da, u oqil, zukko inson bo'lganligidan al-Ahnaf laqabi bilan ham atalgan. Manbalarda keltirilishicha, al-Buxoriyga o'n yoshidan boshlab hadislarini yod olish ilhomi nasib etib, yoshi ulg'aygan sari bu rag'bati tobora kuchayib ziyoda bo'lib borgan, u nafaqat hadislarini shunchaki yod olish, balki unda yoshligidan boshlab hadislarini sahih (to'g'ri, ishonchli) va g'ayri sahihlarga (xato, noto'g'ri) ajratish, ularning illatlarini aniqlash, hadis roviylarini o'rganib tahqiq qilish, ular rivoyatining adolatliligi, to'g'riligi, ishonchli yoki ishonchsizligi, roviylarning maishiy hayotlari, yashash joylari, tug'ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan o'zaro qilgan muloqotlari, turli roviylar keltirgan hadislarini bir-biriga solishtirib muqoyasa qilish, ularning bir-birlari bilan o'zaro bog'liqligi va bir-biriga bog'liq bo'lmay uzilishlar bor holatlari, hadis ilmining xilma-xil va eng yuqori nuqtalariga yetishish, uning turli masalalarini chuqur

tahqiq etish, ularni ja'mlash va Qur'oni karim oyatlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish kabi masalalar bilan qiziqdi. Agar muxtasar holda xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu masalalar bilan imom al-Buxoriy yoshligidan boshlab alohida ishtiyoq va mehr bilan astoydil shug'ullanib, bu oliy janob ishlar uning butun fikri-zikrini batamom chulg'ab, uning dilida kundan-kun kuchayib tobora mustahkamlanib boradi. [1]

Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o'z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo'l oladi. 825-yil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning ilmiy yig'inida qatnashadi. 827-yil Madinaga boradi. Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo'lib, ulardan hadislar bo'yicha saboq oladi. Bu vaqtda Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda Muhammad(s.a.v)ning hadislarini to'plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi. Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi. Shom va Misrga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo'lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to'pladi. [2]

Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziy al-Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o'zaro munosabatlari ibratli bo'lgan. Uzoq yillar Sharqning turli-tuman mamlakatlariga safar qilgandan keyin umrining oxirlarida al-



Buxoriy besh (863 – 868) yil Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergan. O'sha paytda Nishopur musulmon Sharqidagi eng yirik ilmiy markazlardan biriga aylanganligi sababli ko'p mashhur olimlar shu shaharda to'plangan edilar. Al-Buxoriyning at-Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz berib, diyorumizdan chiqqan ikki mashhur muhaddis o'rtasida unutilmas, qizg'in ilmiy bahslar, ko'pdan-ko'p ijodiy, do'stona uchrashuvlar bo'lib o'tadi. At-Termiziyning yozishicha, u o'z asarlari uchun ko'p ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga al-Buxoriy ham at-Termiziyning bilimni yuqori baholab: "Men sendan ko'rgan foyda sen mendan ko'rgan foydadan ortiqroq", deb unga nisbatan chuqur hurmatini bildirgan. At-Termiziy o'z ustozini va safdoshi al-Buxoriyni butun umri davomida hurmatlab, unga samimiy sadoqatda bo'lgan. Arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning (1274 – 1374) "Tazkirat ul-Hufoz" ("Hofizlar haqida tazkira") nomli asarida yozishicha, at-Termiziy o'z ustozining vafoti tufayli qattiq qayg'uga botib "ko'p yig'laganidan hatto ko'zlari ko'r bo'lib qolib, uzoq yillar ko'zi ojiz holda yashadi". [3] Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning "Al-jome as-sahih" asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. Bu sharaflı ishni birinchi al-Buxoriy boshlab bergan bo'lib, keyin qator olimlar unga taqlid qilib, shu zaylda hadislar to'plamini yaratganlar. Imom al-Buxoriyning ushbu yirik asari yozilganiga taxminan 1200-yil bo'ldi, o'sha davrdan boshlab toki shu vaqtgacha u islom ta'limotida Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Imom al-Buxoriyning ushbu asarining ko'plab nusxalari turli shaharlarda tarqalgan. Hatto

o'rta asrlarda yashagan ba'zi adib va xattotlar uchun bu asar nusxalarini ko'chirish tirikchilik manbai ham bo'lgan. Jumladan, taniqli adib va tarixchi an-Nuvayriy (1332-yilda vafot etgan) al-Buxoriyning ushbu asaridan sakkiz nusxa ko'chirib, har birini ming dirhamdan sotgan. 1325-yilda ko'chirilgan sakkiz jilddan iborat go'zal bir nusxasi hozir Istanbulda saqlanmoqda. "Al-Jome' as-sahih"ga ko'pdan-ko'p sharhlar bitilgan bo'lib, muhim manba sifatida u qayta-qayta nashr ham qilingan. Imom al-Buxoriy to'plamlariga kiritilgan hadislar mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik va halollikka da'vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o'zni tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l-yo'riqlar, pand-nasihati va o'gitlar aks ettirilgan. 1974-yilda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasi tashabbusi bilan jumhuriyatimizda butun islom dunyosi vakillari ishtirokida allomaning 1200-yillik yubileyi nishonlangan edi. Uning shoh asarlari hisoblanmish "Al-Jome' as-sahih" va "Al-adab al-mufrad" kitoblari Toshkentda qaytadan nashr qilinishi al-Buxoriy merosini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkentdagi diniy oliy ma'hadning Imom al-Buxoriy nomi bilan atalishi bundan o'n ikki asr muqaddam ilm-fan yo'lida beqiyos katta xizmat qilgan buyuk olimga chuqur hurmat-etiborning ramzidir. Allomaning Xartang qishlog'ida joylashgan salobatli maqbarasi eng obod va ko'rkam qadamjoldan biri sifatida ardoqlanib, islom ahli va barcha mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhurdir. 1998-yilda O'zbekiston



Respublikasi Prezidenti formoni bilan buyuk
hadisshunos allomaning 1225-yillik tavallud
kuni keng jamoatchilik tomonidan katta

hurmat va ehtirom ila nishonlanib, uning
maqbarasi qayta qurildi. [4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharq allomalarining ilmiy merosi, Denov -2021
2. Moziydan taralgan ziyo. Imom al Buxoriy, T., 1998;
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Dushan Fayziy Zarafshoniy, Imom alBuxoriy, T., 1998;